

AFORIZMLARNING ILMIY TADQIQI INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA

Barnoxon Toshboyeva

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Alijonova Mehrinoz Sharifjon qizi

Turon Universiteti Andijon filiali Xorijiy til (ingliz tili),

Lingvistika yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18272543>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezis ingliz va o'zbek tillari doirasida aforizmlarning lingvistik, semantik va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqot davomida chuqur mazmun doirasiga ega bo'lgan, shaklan ixcham va foydalanishga qulay bo'lgan til birliklari, ya'ni aforizmlarning nazariy asoslari, ingliz va o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, aforizmlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ilmiy tarafdin yoritiladi.

Kalit so'zlar: aforizm, hikmatli so'z, frazeologiya, qiyosiy tilshunoslik, semantika, pragmatika, lingvomadaniyat, til birliklari, tarjima, tadqiqot, kommunikativ jarayon, kinoya, paradoks, ma'anaviy tarbiya, yosh omili, madaniy boyluk, tarixiy tajriba.

Аннотация. Настоящие научные тезисы посвящены сравнительно-сопоставительному анализу лингвистических, семантических и прагматических характеристик афоризмов в английском и узбекском языках. В процессе исследования рассматриваются теоретические основы афоризмов как лаконичных языковых единиц, обладающих высокой смысловой насыщенностью и функциональной универсальностью, а также анализируется их роль и этапы формирования в английской и узбекской литературе. Особое внимание уделяется научному освещению проблем, возникающих при переводе афоризмов.

Ключевые слова: афоризм, изречение (мудрое высказывание), фразеология, сопоставительное языкознание, семантика, прагматика, лингвокультурология, языковые единицы, перевод, исследование, коммуникативный процесс, ирония, парадокс, духовно-нравственное воспитание, возрастной фактор, культурное наследие, исторический опыт.

Abstract. This scientific thesis is devoted to a comparative analysis of the linguistic, semantic, and pragmatic features of aphorisms within the framework of the English and Uzbek languages. The study examines the theoretical foundations of aphorisms as concise linguistic units characterized by semantic depth and functional efficiency, as well as their role and stages of development in English and Uzbek literature. In addition, the research provides a scholarly discussion of the challenges encountered in the process of translating aphorisms.

Keywords: aphorism, wise saying, phraseology, comparative linguistics, semantics, pragmatics, linguoculturology, linguistic units, translation, research, communicative process, irony, paradox, moral and spiritual education, age factor, cultural heritage, historical experience.

Til - xalq tafakkuri jamlanmasi, madaniyat va tarixning yorqin ifoda qiluvchi ko'zgusi hisoblanadi. Til birliklari orasida aforizmlar qisqa, lo'nda bo'lishiga qaramay, mazmunan boy, chuqur ma'noga egaligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida rivojlanib kelayotgan umuminsoniy, axloqiy, falsafiy qarashlar aforizmlarda o'z aksini topadi.

Bugungi kunda tilshunoslikda aforizmlarni o'rganish va tadqiq qilishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillari doirasida aforizmlar o'rtasidagi leksik, semantik va lingvokulturologik tafovutlarni o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Aforizmlar til birliklari ichida o'zining mazmunan chuqurligi, sodda va lo'nda tilda yozilgani, umumlashma xarakterga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Aforizmlar insoniyat tomonidan yillar, asrlar osha to'plangan, fikrni ta'sirchan shaklda ifodalovchi til birliklari hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslik sohasida aforizmlar adabiy hodisa bo'libgina qolmay, lingvistik va lingvomadaniy birlik sifatida ham o'rganilib kelmoqda. Aforizmlarni tillar aro tahlil qilish vositasida milliy qadriyatlar, millatning dunyoqarashi o'rtasidagi farqlar, madaniyatdagi xilma-xilliklarni bir-biridan ajratish mumkin. Ingliz va o'zbek tillaridagi aforizmlar mazmunan umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etgan holda, ular o'rtasidagi pragmatika va ifoda shaklida sezilarli tafovutlar bor.

Keltirilgan mavzuning ahamiyati shundan iboratki, aforizmlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida ko'p hollarda g'alizlik yuzaga kelishi mumkin. Chunki, aforizmlar faqatgina til hodisasi bo'libgina qolmay, o'zida madaniy va falsafiy mazmunni yuklab keltuvchi til birliklari hisoblanadi. Shu jihatdan aforizmlarni ilmiy tadqiq etish va turli tillar doirasida qiyoslab o'rganish muhim tadqiqot turlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

"Aforizm" atamasi, qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "aphorismos", ya'ni, 'aniq belgilash', "chegaralash" ma'nolarini anglatadi. Ilk bor bu atamani Gippokrat tibbiyot sohasida qo'llagan, keyinchalik aforizmlar atamasi birin ketin falsafa, adabiyot, tilshunoslik kabi sohalarga ham kirib kela boshladi.

Tilshunoslikda aforizmlar sodda, barqaror tusga ega, umumiy ma'no bildiruvchi, ko'p hollarda ma'lum bir muallifga mansub bo'lgan hikmatli so'zlar hisoblanadi. Aynan shu jihati bilan ham boshqa frazeologik birliklardan farq qiladi. Ixchamlik, aniqlik, mazmunan boylik, estetik va pragmatik ta'sirchanlik kabi xususiyatlar aforizmlarga xosdir. Aforizmlar nutqda tayyor birlik sifatida foydalanilib, kommunikativ jarayon davomida o'z ta'sir kuchini yanada oshiruvchi, pragmatik jihatdan muhim ahamiyat kasb etuvchi til birliklaridir.

Aforizmlar ayrim olimlar tomonidan frazeologiyaning alohida turi sifatida baholanadi.

Biroq, maqol va matallardan farqli o'laroq aforizmlar ma'lum bir davlat arbobi, shoir yoki yozuvchi kabi shaxslarning shaxsiy hayotiy tajribalarini ifoda etib, mualliflik xarakteriga ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, aforizmlar frazeologik birliklar kabi barqaror tuzilishi, ko'chma yoki majoziy ma'noda ifoda etilishi, emotsional-ekspressiv qobiliyatga egaligi bilan frazeologiyada frazeologik birlik sifatida boshqa birliklar bilan bir yo'sinda talqin etiladi.

Shuningdek, aforizmlar ko'pincha falsafiy va umumlashma ma'noga egaligi sababli nutqda foydalanganda xulosa chiqarish va baholash vazifalarini ham bajarib keladi.

Ingliz tilida aforizmlar shaxsiy tajriba, mantiqiy fikrlash, pragmatik yondashuvning o'zgachaligiga ega bo'ladi. Ularda hayotiy haqiqatlar kinoya yoki paradoks vositasida ifoda etiladi. Masalan, "Knowledge is power" (F. Bacon) aforizmida bilim jamiyatdagi kuch manbai sifatida ta'riflanadi. Ingliz aforizmlarida metafora va antiteza yoki kinoya usullaridan keng va o'rinli foydalaniladi. Bu orqali aforizmlarning pragmatik saviyasi va ta'sir doirasi yanada kuchaytiriladi.

O'zbek aforizmlari esa o'zida xalq og'zaki ijodini namoyon qilib, sharq falsafasi bilan islomiy qadriyatlarni uyg'unlashtirib keladi. Ularda ko'pincha axloqiy tarbiya, ilm- ma'rifatga, vatanga muhabbat, sabr- toqat kabi tushunchalar ifoda etiladi. O'zbek aforizmlari o'zining metaforik, metonimik va kinoyali o'xshatishlarga boyligi bilan tinglovchiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, "Ilm insonni ulug'laydi." (A. Navoiy) aforizmidagi ilm insoniyatni yuksak ko'rsatuvchi tilsim sifatida tasvirlanib, ilmi inson jamoat ichida ardoqlanishi bildiriladi. O'zbek aforizmlarida kattaga hurmat, kichikka izzat, ma'naviy poklikka erishish tushunchalari ustuvor mavzulardan hisoblanadi.

Qiyosiy tahlillar orqali shuni ta'kidlash mumkinki, har ikkala tilda aforizmlar umuminsoniy qadriyatlarni ifodalab kelsada, shaklan va semantik yo'nalishiga ko'ra sezilarli farq qiladi. Bu farqlarni quyidagi jadval vositasida ko'rish mumkin.

Mezoni	Ingliz tili	O'zbek tili
Dunyoqarash	Individualistik	Jamoaviy
Uslub	Kinoya, paradoks	Nasihat, hikmat
Maqsad	Tahlil va tanqid	Tarbiya

Aforizmlar ma'lum tilning ahamiyatli lingvistik va madaniy boyliklaridan biri hisoblanadi.

Inglizva o'zbek tillaridagi aforizmlar umumbashariy qadriyatlarni ifodalagan holda, har ikki xalqning o'zigagina tegishli bo'lgan milliy o'zligini ham aks ettiradi. Ularni qiyosiy tahlil qilish tarjimashunoslik, frazeologiya, lingvomadaniyatshunoslik kabi sohalarning asosiy ilmiy obyektlaridan biri hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi aforizmlarni qiyosiy tahlil qilish davomida ulardagi kognitiv idrok qilinish darajasi ya'ni mansub til foydalanuvchilari aforizmlarni qanday tushuna olishi yoki qay tarzda talqin qila olishi muhim ilmiy masalalardan biri sifatida o'rganiladi. Aforizmlarning qay darajada idrok qilinishi til egalarining yoshi, jamiyatdagi ijtimoiy roli, dunyoqarashi bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa global axborot ta'sirida rivojlanayotgan yosh avlod vakillari aforizmlarni qisqa, lo'nda tilda yozilgan, umumlashma ma'noga ega, tinglovchiga tez tushuniladigan fikr sifatida qabul qilishda yoki ulardagi chuqur falsafiy mazmunni anglab yetish masalalarida muammolar yuzaga keladi. Mana shunday holatlar aforizmlarning pragmatik jihatdan yosh omiliga bog'liqligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz tilida aforizmlar ko'pincha shaxsiy fikrlash, biror masalaga tanqidiy tarzda yondashishni qo'llab- quvvatlasa, o'zbek tilidagi aforizmlarda ommaviy qadriyatlar, axloqiy normalar, ma'naviy tarbiya tushunchalarini ulug'lashga qaratiladi.

Bunday tafovutlar aforizmlarning semantic tuzilishida, ifoda yo'sinining xilma-xilligida, shuningdek, kommunikativ jarayondagi ishtirokida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, har ikki tilda ham aforizmlar umumlashma ma'noga ega bo'lib, biror fikrni ixcham va ta'sirchan usulda bildirish funksiyasini bajaradi.

Tarjimashunoslikda aforizmlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Chunki aforizmlar milliy obraz va tarixiy tajriba bilan o'zaro bog'liq bo'ladi.

So'zma - so'z tarjima qilinganda aforizmlar o'zining estetik va pragmatik xususiyatini yo'qotishi yoki boshqa ma'no berishi mumkin. Shuning uchun tarjimashunoslikda faqat leksik ma'noga emas, balki pragmatik va semantik muvozanatga ham e'tibor berish lozim.

Aforizmlarning asosiy mohiyati, ta'sir doirasi va o'zida umumlashtirib kelgan ma'naviy-madaniy xususiyati saqlab qolinishi juda muhim.

Ingliz va o'zbek tillaridagi aforizmlarning qiyosiy tadqiqi frazeologiya, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik kabi sohalarda muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotda aforizmlar nafaqat til birliklari sifatida o'rganilib, shuningdek madaniyatlararo muloqot jarayonidagi ahamiyati ham aniqlanadi. Kelajakda aforizmlarni yoshga bog'liq tarzda qanday xususiyatlarga egaligi, zamonaviy aloqa jarayonidagi o'rniga bogliq tarzda o'rganish va tadqiq qilish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

AABIYOTLAR RO'YXATI

1. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: Fan, 2011.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent, 2009.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasi masalalari. — Toshkent: Fan, 2001.
4. Komilov N. Sharq falsafasi va madaniy tafakkur. — Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
5. Yo'ldoshev B. Lingvokulturologiya asoslari. — Toshkent: Universitet, 2018.
6. Bacon F. Essays. — London: Penguin Classics, 2005.
7. Wilde O. Collected Aphorisms. — Oxford: Oxford University Press, 2003.
8. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
9. Newmark P. A Textbook of Translation. — London: Prentice Hall, 1988.
10. Nida E. Language, Culture and Translating. — Shanghai: Foreign Language Education Press, 2001.
11. Leech G. Principles of Pragmatics. — London: Longman, 1983.
12. Lyons J. Semantics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
13. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — London: Routledge, 2011.